

## O'ZBEKISTONDA SO'NGGI YILLARDA PENSIYA TA'MINOTI TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN O'ZGARISHLAR

*Cho'lliyeva Gulrux Bahodir qizi*

*O'zbekiston Respublikasi Bank- Moliya Akademiyasi*

*Magestratura mutahassisligi*

*"Pensiya fondlarini boshqarish" yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda O'zbekistonda so'nggi yillarda pensiya ta'minoti tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Pensiya, pensiya yoshi, pensiya tayinlash, fuqarolar pensiya ta'minoti, elektron baza.

**Annotation:** This thesis talks about the changes made in the pension system in Uzbekistan in recent years.

**Key words:** Pension, retirement age, pension appointment, citizen pension provision, electronic database.

**Аннотация:** В данной дипломной работе говорится об изменениях, произошедших в пенсионной системе Узбекистана за последние годы.

**Ключевые слова:** Пенсия, пенсионный возраст, назначение на пенсию, пенсионное обеспечение граждан, электронная база данных.

O'zbekiston mustaqil va o'zining uzoq yillik tarixiga ega mamlakat hisoblanadi. Ayni damda 36 milliondan ortiq aholi (Statistika qo'mitasi, 2022) soniga ega mamlakatimiz har sohada izchillik bilan rivojlanib bormoqda. Ammo, demografik o'zgarishlar, jumladan, doimiy aholi sonining oshib borishi natijasida ayrim sohalarda, xususan, pensiya tizimida birmuncha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ya'ni, 2017-yilning o'zida mamlakataholisi 533,4 ming kishiga ko'paygan. 2018-2025 yillarda qilingan prognozlarga ko'ra pensiya yoshidagi aholi ulushining 1,2 mln. kishiga oshishi kutilmoqda. Bu esa mamlakat aholisi tarkibida pensiya yoshidagi shaxslar ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Statistika organlari ma'lumotlariga ko'ra 2022-yildan boshlab pensiya yoshidagi shaxslar soni 11 foizdan oshadi va 2025-yilga kelib 14 foiz darajasiga yetadi.

Shuningdek, 2016-yildan boshlab mamlakatda pensiya tayinlash uchun yillik murojaatlar soni oshgan (o'rtacha yillik o'sish – 16 ming kishi) va bu o'sish 2025-yilga kelib 300 ming (Davronov, 2018) kishidan oshadi. Shu bilan birga, fuqarolar pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu pensiya yoshi hisoblanadi. o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda o'rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni tashkil etsa,

O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh). Markaziy Osiyo davlatlarida, masalan Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqi erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun –58 yosh. Qozog‘istonda ayollarning pensiya yoshini 63 yoshga yetkazish, bunda har yili pensiya yoshni 6 oyga bosqichma-bosqich oshirish yo‘li bilan amalga oshirib boriladi. Turkmanistonda pensiya yoshi erkaklar uchun 62 yoshni, ayollar uchun 57 yoshni tashkil etadi. O‘zbekistonda pensiya tayinlash tartibiga bir qator yangiliklar kiritilmoqda. Joriy yilining 31-oktyabrdagi “Ahолига pensiya tayinlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qaroriga asosan tizimda bir qator yangiliklar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Qarorga binoan 2024-yil yanvardan boshlab fuqarolarga pensiya tayinlash uchun qo‘srimcha ravishda davlat xizmatlari markazlariga borgan holda yoki onlayn shaklda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı orqali ham murojaat qilish imkoniyati yaratiladi. Bunda onlayn ariza qoldirish mumkin bo‘ladi. Tizim murojaatni fuqarodan avtomat ravishda qabul qiladi.

Aytish kerak, 2022-yil iyunga qadar pensiya tayinlash uchun fuqarolardan 14 ta tashkilotdan 36 tagacha hujjat talab qilingan. Ularni yig‘ishga 6 oygacha vaqt sarflanardi. Bunungi kunda o‘sha ma’lumotlari elektron bazada mavjud bo‘lgan fuqarolardan pensiya tayinlash uchun faqatgina pasport talab qilinadi. Ya’ni hozir bitta pasport bilan pensiya tayinlash uchun murojaat qilish mumkin. Yangi tartib bo‘yicha esa bu holat yanada takomillashtirilmoqda va onlayn ravishda ariza topshirish imkon yaratilmoqda.

Qarorga asosan, 2024-yil 1-yanvardan boshlab jamg‘arib borilgan pensiya mablag‘larini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı yoki “Xalq banki”ning mobil ilovasi orqali olish imkoniyati yaratiladi. Hozirda jamg‘arilgan mablag‘larni olish uchun fuqarolarga Pensiya jamg‘armasi tomonidan qog‘oz shaklida sertifikat beriladi.

Yangi tartibga ko‘ra, o‘sha qog‘oz sertifikat berish bekor qilinadi va pullarni onlayn shaklda “Xalq banki”ning mobil ilovasidan yoki Yagona interaktiv portal orqali olish mumkin bo‘ladi. 2025-yil 1-martdan boshlab erkaklar 60 yoshga yetganda, ayollar 55 yoshga kirganda pensiyalari avtomatik ravishda (ulardan biror-bir hujjat talab etmagan holda) tayinlanadigan bo‘ladi. Bunda shaxsga oid ma’lumotlarni (fuqaroning yoshi, jinsi, ish stoji, oilasi tarkibi...) Adliya, Bandlik vazirliklari va Soliq qo‘mitasining elektron axborot bazalaridan olinadi va pensiyalar avtomatik tarzda tayinlanadi.

Fuqaroga: “sizga pensiya tayinlandi”, degan SMS yuboriladi. Xabarda pensiya miqdori ham ko‘rsatiladi. Fuqaro 60 yoshga to‘lgach, avtomatik tayinlangan pensiyasidan norozi bo‘lsa, masalan, yana ishlamoqchiligi to‘g‘risida Pensiya jamg‘armasiga murojaat qilishi kerak. Shunda fuqaroning ixtiyori bilan unga

tayinlangan pensiya pulini berish to‘xtatib turiladi. Keyinchalik pensiya yana tayinlanishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar fuqarolarga hujjat yig‘ish va Pensiya jamg‘armasiga borib, ovora bo‘lishlarining oldini olish maqsadida qilinmoqda.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahriri.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 1993-yil 3-sentabr “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida” 938-XII-son Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabr “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 592-son Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining ma’lumotlar bazasidan.
5. Lex.uz
6. Stat.uz